Ta’lim tizimida pedagoglarning stressga bardoshlilikini oshirishning innovatsion yondashuvlari	557
Usanova Bahoroy Eshpo’lat qizi	
Дидактические возможности искусственного интеллекта в дифференцированном обучении младших школьников	562
Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Шихназарова Сайёра	
Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi	566
Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Chorshanbiyeva Mahliyo SHERALI qizi	
Interaktiv metodlar orqali raqamli savodxonlikni rivojlantirish	571
Jahonova Xolida G’anisher qizi	
Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish	576
D. N. Adilova, M. A. Irgashova	
Badiiy matnda takror qurilmalarning qo’llanishi: “Otamdan qolgan dalalar” romani misolida	579
Gulzoda Uzoqova Ramazonovna	
Raqamli turizm texnologiyalari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida madaniy-ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish modeli va metodik ta’minoti	584
Ismatova Dilorom Hotam qizi	
Ijtimoiy tarmoqlarning o’smirlar o’z-o’zini baholashiga psixologik tasiri	589
Karatayeva Zamira Zakrulla qizi, Anvarova Muslima Boburjon qizi	
Ichki va tashqi motivatsiyaning talabalar faoliyatidagi roli	594
M. K. Muradova	
Talabalarda ehtimoliy tafakkurni rivojlantirishda cheksiz o’lchamli stoxastik operatorlar dinamikasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari	596
Madina Rasulova	
Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish metodikasi	600
Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna, Kurbanov Fazliddin Batirovich	
O’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari	604
Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna	
Tibbiy-pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlari, mezonlari va ko’rsatkichlari	606
Xayitova Shahnoza Daniyarovna	



IJTIMOYIY TARMOQLARNING O'SMIRLAR O'Z-O'ZINI BAHOLASHIGA PSIXOLOGIK TASIRI

Karatayeva Zamira Zakrulla qizi

Anvarova Muslima Boburjon qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Pedagogika-psixologiya yo'nalishi talabalari

Ilmiy rahbar: Karimjanova Yoqutxon Urinbayevna

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Psixologiya kafedrası, katta o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-8721-5834

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar o'z-o'zini baholashiga psixologik ta'siri ilmiy-nazariy hamda empirik jihatdan tahlil qilinadi. Hozirgi globalashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda o'smirlarning aksariyat qismi kundalik hayotining katta qismini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. Ayniqsa Instagram, TikTok, Telegram va boshqa virtual platformalar o'smirlarning dunyoqarashi, emotsional holati, o'ziga bo'lgan munosabati hamda shaxs sifatida shakllanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar psixikasiga, xususan o'z-o'zini baholash jarayoniga ta'sirini o'rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida so'rovnoma metodi hamda "Stefanson uslubi" so'rovnomasining o'z-o'zini baholash shkalasi metodidan foydalanildi. Empirik natijalar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanadigan o'smirlarda o'zini boshqalar bilan solishtirish holati kuchli kuzatiladi va bu ularning o'ziga bo'lgan ishonchi pasayishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, virtual muhitdagi ideal obrazlar va ommaviy baholash tizimi ayrim o'smirlarda psixologik qoniqmaslikni shakllantirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'smirlar davri, o'z-o'zini baholash, ijtimoiy tarmoqlar, virtual muhit, psixologik ta'sir, internet qaramligi, shaxs rivojlanishi, psixologik holat, ijtimoiy taqqoslash, emotsional barqarorlik, o'ziga ishonch, kommunikativ faollik, Rosenberg shkalasi, psixologik moslashuv, virtual muloqot.

Abstract: This article scientifically, theoretically, and empirically analyzes the psychological impact of social networks on adolescents' self-esteem. In the modern era of globalization and the development of digital technologies, most adolescents spend a significant part of their daily lives on social networks. In particular, Instagram, TikTok, Telegram, and other virtual platforms significantly influence adolescents' worldview, emotional state, self-attitude, and personality formation. Therefore, studying the impact of social networks on adolescents' psyche, especially on the process of self-esteem, is considered one of the urgent problems of modern psychology. During the research, the questionnaire method and the self-esteem scale method of the "Stefanson Method" questionnaire were used. Empirical results showed that adolescents who excessively use social networks tend to compare themselves with others more strongly, which causes a decrease in their self-confidence. At the same time, it was found that ideal images in the virtual environment and the system of mass evaluation form psychological dissatisfaction in some adolescents.

Key words: adolescence, self-esteem, social networks, virtual environment, psychological impact, internet addiction, personality development, psychological state, social comparison, emotional stability, self-confidence, communicative activity, Rosenberg scale, psychological adaptation, virtual communication.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически и эмпирически анализируется психологическое влияние социальных сетей на самооценку подростков. В условиях современной глобализации и развития цифровых технологий большинство подростков проводят значительную часть своей повседневной жизни в социальных сетях. В частности, Instagram, TikTok, Telegram и другие виртуальные платформы оказывают значительное влияние на мировоззрение подростков, их эмоциональное состояние, отношение к себе, а также на формирование личности. В связи с этим изучение влияния социальных сетей на психику подростков, в частности на процесс самооценки, считается одной из актуальных проблем современной психологии. В ходе исследования были использованы метод анкетирования и метод шкалы самооценки опросника "Метод Стефансона". Эмпирические результаты показали, что у подростков, чрезмерно использующих социальные сети, ярко наблюдается склонность сравнивать себя с другими, что приводит к снижению уверенности в себе. Наряду с этим было выявлено, что идеальные образы в виртуальной среде и система массового оценивания формируют у некоторых подростков психологическую неудовлетворенность.

Ключевые слова: подростковый возраст, самооценка, социальные сети, виртуальная среда, психологическое воздействие, интернет-зависимость, развитие личности, психологическое состояние, социальное сравнение, эмоциональная устойчивость, уверенность в себе, коммуникативная активность, шкала Розенберга, психологическая адаптация, виртуальное общение.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda ijtimoiy tarmoqlar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, Instagram, TikTok, Telegram kabi platformalar o'smirlarning kundalik hayotida muhim o'rin egallamoqda. O'smirlar ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish, o'z fikrini bildirish va o'zini namoyon etishga intiladilar. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar psixologiyasiga, xususan, o'z-o'zini baholashiga ta'sirini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'smirlar davri shaxs shakllanishining murakkab bosqichi bo'lib, bu davrda o'ziga bo'lgan munosabat, o'z imkoniyatlarini baholash va jamiyatdagi o'rnini anglash jarayonlari faol rivojlanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal obrazlar, "layk" va izohlar tizimi o'smirlarda o'zini boshqalar bilan taqqoslash holatini kuchaytirib, ayrim hollarda o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda yoshlarning har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ma'naviy yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarda sog'lom va adekvat o'z-o'zini baholashni shakllantirish muhim psixologik-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar o'z-o'zini baholashiga psixologik ta'siri nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi.

"Yangi O'zbekiston - taraqqiyot strategiyasi" doirasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, yoshlarning intellektual va ma'naviy salohiyatini yuksaltirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Ushbu strategik hujjatlarda yoshlarning psixologik rivoji, o'ziga bo'lgan munosabati va shaxsiy qadr-qimmatini anglash masalalari jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida e'tirof etiladi. Bu esa o'smirlarda o'z-o'zini baholash muammosini ilmiy jihatdan chuqur o'rganish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Zamonaviy psixologik tadqiqotlarda o'z-o'zini baholash shaxs tuzilmasining markaziy komponentlaridan biri sifatida qaraladi. Mahalliy psixolog olimlar tadqiqotlarida ham o'smirlar davrida o'z-o'zini baholashning shakllanishi ijtimoiy muhit, oila, ta'lim muassasasi va tengdoshlar bilan munosabatlar bilan chambarchas bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Biroq jamiyatda kechayotgan tezkor ijtimoiy o'zgarishlar, raqamli muhitning ta'siri hamda ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi o'smirlarda o'z-o'zini baholash jarayoniga yangi omillarni olib kirayotganligi ushbu muammoni qayta va chuqurroq tadqiq etishni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, o'smirlarda o'z-o'zini baholashning psixologik xususiyatlarini nazariy va empirik jihatdan o'rganish, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ijobiy o'z-o'zini baholashni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kun uchun nihoyatda dolzarb mavzu bo'lib hisoblanadi. Mazkur maqola aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda yozildi va uning natijalari ta'lim muassasalari psixologlari, o'qituvchilar hamda ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga, yoshlar tarbiyasiga oid davlat siyosati vazifalarini amalga oshirishga ham xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kanadalik olim Marshall McLuhan ommaviy kommunikatsiya vositalarining inson tafakkuri va ijtimoiy ongiga ta'siri haqida tadqiqot olib borgan. U "global qishloq" konsepsiyasini ilgari surib, axborot vositalari insonning dunyoqarashi va shaxsiy identifikatsiyasiga ta'sir qilishini asoslagan.

Amerikalik psixologlar Jean Twenge va W. Keith Campbell o'smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlar va smartfonlardan foydalanishning psixologik oqibatlarini keng tadqiq qilgan. Twenge o'zining iGen nomli tadqiqotida ijti-



moiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish depressiya, yolg'izlik hissi va o'z-o'zini past baholash bilan bog'liqligini empirik ma'lumotlar asosida ko'rsatgan. Tadqiqotda ayniqsa Instagram va TikTok kabi vizual platformalarda ideal obrazlarning namoyishi o'smirlarda norozilik va o'zidan qoniqmaslik hissini kuchaytirishi qayd etilgan.

Bundan tashqari, ingliz tadqiqotchisi Sarah Coyne va uning hamkorlari tomonidan o'tkazilgan ilmiy izlanishlarda ijtimoiy tarmoqlardagi "layk", izoh va virtual tasdiqlash mexanizmlarining o'smirlarning emotsional holati hamda o'z-o'zini baholashiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, virtual ijtimoiy qo'llab-quvvatlash vaqtinchalik ijobiy hissiyot bersa-da, unga haddan tashqari bog'lanish psixologik qaramlikni shakllantirishi mumkin.

Nemis olimi Leon Festinger tomonidan ishlab chiqilgan Social Comparison Theory ham ushbu mavzuning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Olimning fikriga ko'ra, insonlar o'zlarini boshqalar bilan taqqoslash orqali baholaydilar. Ijtimoiy tarmoqlarda esa insonlar ko'pincha hayotining eng ideal tomonlarini namoyish qilgani sababli o'smirlarda o'zini yetarlicha qadrlamaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Gadjetlarning kichik bolalar va o'smirlar uchun salbiy ta'siri shu darajada batafsil hujjatlashtirilganki, texnologiyalardan voz kechish tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biriga aylanib ulgurdi. Biroq yangi tadqiqotlar elektron qurilmalar ekrani oldida o'tkazilgan vaqt bolaning ruhiy salomatligiga ta'sir qilishi borasidagi masalani ilgari surmoqda. Yana bir tadqiqotga ko'ra, bolaga gadjetlardan foydalanishni man etish aslida yoqimsiz oqibatlariga ega bo'lishi mumkin. O'smirlar ijtimoiy tarmoqlar va video o'yinlarga ko'p vaqt sarflashlari borasida hech qanday shubha yo'q.

American Academy of Pediatrics hisob-kitoblariga ko'ra, bola elektron qurilmalarga kuniga o'rtacha yetti soat sarflaydi. Bolalarning o'zi ham vaziyat nazoratdan chiqib ketganini tan olishmoqda: 13 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan o'smirlarning 54 foizi telefon oldida ko'p vaqt sarflashini va 52 foizi bu vaziyatni to'g'rilashga harakat qilganini aytishgan. "Gadjetlar yonida o'tkazilgan vaqt o'smirlar farovonligini yomonlashtirishi borasidagi aniq isbotlar kam va ko'pchilik natijalar bir mamlakatda o'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanadi, ular asosida esa aniq bo'lmagan, biroq bolalarning mashhur ko'rsatkichlari yotadi", - deydi Psychological Science jurnalidagi tadqiqotchilar.

Izlanishlarimiz jarayonida mazkur olimlar tadqiqotlarida AQSh, Buyuk Britaniya va Irlandiyadagi 5363 nafar o'smir ishtirok etgan bo'lib, ularning ishlari gadjetlar ruhiy salomatlik va bolalar farovonligiga kam ta'sir qilishini ko'rsatmoqda. Umuman olganda, tadqiqotchilar nafaqat ishtirokchilarning o'zi, balki ularning ota-onalari tomonidan berilgan ma'lumotlarni ham hisobga olishgan.

Yana bir tadqiqotni o'rganadigan bo'lsak, bolani telefon o'ynash imkoniyati bilan mukofotlash yoki jazolash qarorining to'g'riligiga shubha qilish mumkin. Unda 18 oydan 5 yoshgacha bo'lgan 62 nafar bolaning ota-onasi ishtirok etgan. Ulardan bolaning gadjetlar bilan o'tkazgan vaqtini qanday nazorat qilishlari so'ralgan. Ularning farzandlari ish kunlari 1,5 soat, dam olish kunlari esa ikki soatga yaqin vaqtni ekran oldida o'tkazadi. Yaxshi xulqi uchun kompyuter oldida o'tirishga ruxsat olgan bolalar dam olish kunlari boshqalarga qaraganda internetda 20 daqiqaga ko'proq vaqt o'tkazishgani kuzatilgan.

"Bu xuddi bolalarni shirinlik bilan mukofotlash kerak emasligiga o'xshab ketadi, chunki u tobelikni chaqirishi mumkin", - deydi oila munosabatlari va amaliy ovqatlanish professori Jess Haines.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada ijtimoiy tarmoqlarning o'smir yoshidagi bolalarning psixologik rivojlanishiga, xususan, ularning o'z-o'zini baholash darajasiga ko'rsatadigan ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlarning nafaqat salbiy oqibatlari, balki o'spirinlarning tafakkuri, til boyligi va axborotdan xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qiluvchi ijobiy jihatlari ham yoritiladi. Raqamli makonning keskin kengayishi, internet texnologiyalarining rivojlanishi va mobil qurilmalarning ommalashuvi natijasida virtual faoliyat o'spirinlar hayotining ajralmas qismiga aylangan.

O'zbekiston va jahon miqyosidagi so'nggi ilmiy tadqiqotlar o'spirinlarning ijtimoiy tarmoqlarda ko'p vaqt o'tkazishi ularning shaxsiy identifikatsiyasi, emotsional barqarorligi hamda o'z-o'zini anglash jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy jamiyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, jumladan, smartfonlar, planshetlar, kompyuterlar hamda ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ushbu vositalar ta'lim olish, axborotga tezkor ega bo'lish va muloqotni rivojlantirish imkonini bersa-da, ularning nazoratsiz va haddan tashqari qo'llanilishi o'smirlarning psixologik rivojlanishiga, xususan, o'z-o'ziga baho berish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli gadjetlar va ommaviy axborot vositalarining o'smirlar o'z-o'zini baholashiga ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

O'smirlik davri shaxs shakllanishining muhim bosqichi bo'lib, bu davrda o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini baholash intensiv rivojlanadi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, o'smirlar o'zlarini boshqalar bilan solishtirishga moyil bo'lalilar. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida namoyish etilayotgan "ideal obrazlar", muvaffaqi-

yatli hayot tarzi hamda tashqi ko'rinish standartlari o'smirlarning real imkoniyatlari bilan mos kelmasligi natijasida past o'z-o'zini baholash, norozilik va ishonchsizlik hissi yuzaga kelishi mumkin.


Gadjetlardan haddan tashqari foydalanish o'smirlarda virtual muloqotning real muloqotdan ustun kelishiga olib keladi. Natijada ijtimoiy ko'nikmalar yetarli darajada rivojlanmaydi, bu esa shaxslararo munosabatlarda qiyinchiliklar tug'diradi. Ushbu holat o'smirlarning o'zini jamiyatda past baholashiga, yolg'izlik va ijtimoiy chekinishga sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi "layk", "obunachi" va "ko'rishlar soni" kabi ko'rsatkichlar o'smirlar tomonidan shaxsiy qadr-qimmat mezoni sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa o'z-o'zini baholashning tashqi omillarga haddan tashqari bog'lanishiga olib keladi. Psixologlar fikricha, bunday holat emotsional beqarorlik, xavotirlik va depressiv kayfiyatlarning kuchayishiga zamin yaratadi. Axborot vositalarida zo'ravonlik, agressiya va salbiy xulq-atvor namunalari ko'pligi ham o'smirlar psixikasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holat o'ziga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga, agressiv xulq-atvor yoki past o'z-o'zini baholash bilan namoyon bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlarning o'z-o'zini baholashiga psixologik ta'sirini aniqlash maqsadida 30 nafar o'smir boladan onlayn tarzda "Stefanson uslubi" so'rovnomasi olindi. Ushbu "Stefanson uslubi" so'rovnomasi asosida o'tkazilgan tadqiqot natijalari gadjetlarning o'smirlardagi o'z-o'zini baholash darajasi va mustaqillik xususiyatlari o'rtasida muhim psixologik bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

"Stefanson uslubi" so'rovnomasi asosida o'tkazilgan onlayn tadqiqot natijalariga ko'ra, jami 30 nafar o'smir ishtirok etdi va natijalar 5 ta shkala bo'yicha tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, 1-shkala (kirishimlilik) - 12%, 2-shkala - 15%, 3-shkala - 18%, 4-shkala - 19% va 5-shkala - 36% ni tashkil etdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, eng yuqori ko'rsatkich 5-shkalaga to'g'ri kelib, bu o'smirlarda o'z-o'zini baholash darajasining nisbatan yuqoriligini ifodalaydi. Shunga muvofiq, o'ziga bo'lgan ishonchning yuqori darajada shakllanganligi ularning mustaqillik darajasi ortishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.



1-rasm: "Stefanson uslubi" so'rovnomasi asosida o'tkazilgan onlayn tadqiqot natijalari foiz ko'rsatkichlarida.

<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSe6Abz01EkxVvTSyQiFiYNRo--lagqLTAY7bb-dqbXN8GKUuQ/view-form?usp=dialog>

Yuqorida ushbu so'rovnomaga kirish havolasi taqdim etildi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar o'smirlar hayotining muhim qismiga aylanganligi sababli, ular o'z-o'zini baholash jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardagi ideal obrazlar, ommaviy baholash, "layk" va izohlar tizimi ayrim o'smirlarda o'zini boshqalar bilan taqqoslash holatini kuchaytiradi. Natijada ularda ishonchsizlik, xavotirlik va psixologik qoniqmaslik yuzaga kelishi mumkin. Biroq tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, o'z-o'zini baholash darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar virtual muhit ta'siriga nisbatan psixologik jihatdan barqarorroq bo'ladilar.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yuqori o'z-o'zini baholash o'smirlarda mustaqillik, ijtimoiy faollik va erkin fikrlashning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Bu esa oilaviy muhit, ta'lim va psixologik qo'llab-quvvatlashning o'smir shaxsining rivojlanishidagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.



Psixologik tavsiyalar: o'smirlarda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish lozim. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan o'smirlarni doimiy psixologik qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. O'smirlarni boshqalar bilan emas, o'z imkoniyatlari bilan taqqoslashga o'rgatish zarur. Psixologik treninglar orqali o'ziga ishonch va adekvat o'z-o'zini baholashni rivojlantirish tavsiya etiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda o'tkaziladigan vaqtni me'yorlashtirish ham psixologik salomatlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlar davrida o'z-o'zini baholash shaxs rivojlanishining muhim psixologik omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari o'smirlarda o'z-o'zini baholash va mustaqillik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarning psixologik holati va o'ziga bo'lgan munosabatiga kuchli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Farzandning yutuqlarini e'tirof etish va kichik muvaffaqiyatlarini ham qadrlash, oilada sog'lom psixologik muhitni - hurmat, ishonch, ochiq muloqotni yaratish o'z-o'zini baholash rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar o'z xulqi orqali namuna bo'lishlari zarur, chunki o'smirlar ko'proq kuzatish orqali o'rganadi.

Shuning uchun o'smirlarda sog'lom va adekvat o'z-o'zini baholashni shakllantirish, ularni virtual muhitning salbiy ta'siridan himoya qilish hamda psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy psixologiya / P.I. Ivanov, M.E. Zufarova. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 480 b.
2. Psixologiya / E.G'. G'oziyev. - Toshkent: O'qituvchi, 2008. - 352 b.
3. A. Bandura. Social Learning Theory. - New Jersey: Prentice Hall, 1977.
4. Sh. A. Do'stmuhamedova. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2013.
5. D. Myers. Social Psychology. - New York: McGraw-Hill Education, 2010.
6. Jean Piaget. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge, 1950.
7. Coyne S. et al. Social Media Use and Adolescent Mental Health // Journal of Adolescence. - 2020.
8. Yurevna, S. N., & Yulbarsova, A. L. (2022). Psychological research by early twentieth-century scientists on the role of the doll in the development of the image of motherhood in children. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.